

Mineral o'g'itlar Birja savdolaridagi lotlarining yakuniy narxlari bo'yicha kelib chiqqan tushunmovchilik yuzasidan tushuntirish!

// 25 January 2024 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/mineral-o-g-itlar-birja-savdolaridagi-lotlarining-yakuniy-na>

Hurmatli fermerlar va xaridorlar!

"O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi" AJ tomonidan "O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasida birja savdolarini o'tkazish Qoidalari" ("O'zRTXB" AJ Kuzatuv Kengashining 2023-yil 16-oktyabrdagi bayoniga muvofiq birja savdolarini o'tkazish tartibiga o'zgartirishlar kiritilgan bo'lib, 2023- yilning oktabr oyidan savdolarini pasayish tomon auksion turida o'tkazish ham yo'lga qo'yilgan.

UzEx.uz saytida Birja savdolariga qo'yilgan ammofos o'g'iti joylashtirilgan barcha lotlarda "Auksion turi" grafasida savdo ko'tarilishi yoki 10% chegirmagacha o'tkazilishi mumkinligi aniq qilib belgi orqali ko'rsatilgan. Boshlang'ich narxlar esa barcha keltirilgan lotlarda aynan bir hil. Tonnasiga 7 660 000 (yetti million olti yuz oltmish ming so'm) etib belgilab qo'yilgan. Bu birja savdolari pasayish tomon auksion deyiladi va narx asta-sekin belgilangan chegirmagacha tushishi mumkin. Bunday savdoda ham xuddi biz o'rganib qolgan kim oshdi auksion savdosi kabi eng yuqari narxda sotib olgan xaridor g'olib deb topiladi. Natijada, start narxlar barcha lotda bir xil, lekin sotilish narxlari har hil bo'lishi mumkin va bu tabiiy hol. Bunda yollangan Broker o'z mijoziga, ya'ni xaridorga sotib olmoqchi bo'lgan mahsulot joylashtirilgan lotda ko'rsatilgan barcha alohida shartlarni to'liq tushuntirib berishi kerak.

Birja savdolarining o'tkazilishi yuzasidan yangilangan tartib qoidalar bilan quyidagi havola orqali tanishib chiqishingiz mumkin:

<https://uzex.uz/uz/pages/about-documents>

(O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasida birja savdolarini o'tkazish Qoidalari/106-band.)